



BUXORO XONI IMOMQULIXON VA BOSHQA NUFUZLI ASHTARXONIY HUKMDORLARNING JO'YBOR SHAYXLARI

BILAN MUNOSABATLARI

Sulaymonov Boburjon Dilmurod o'g'li

FarDU tarix yo'nalishi talabasi

+998906336208, boburjonsulaymonov8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15852202>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2025

Accepted: 30th June 2025

Published: 10th July 2025

KEYWORDS

Ashtarxoniylar, Jo'yboriylar, elchilik, tashqi aloqalar, munosabatlar, Matlab ut-tolibin, Ubaydullaxon II, Imomqulixon, Halim To'rayev, Xoja Tojiddin, Subhonqulixon, Abdurahimxoja, in'om.

ABSTRACT

Buxoro xonligida Jo'ybor shayxlarining siyosiy maydonga chiqish holatlari Shayboniy hukmdor Abdullaxon II hukmronligi davrida (1556 – 1598) boshlanganligini bilamiz. Abdullaxon II hokimiyat tepasiga kelishida Jo'ybor shayxi Muhammad Islom va uning o'g'li Abubakr Sa'dlarning katta xizmatlari bo'lgan va xon umri davomida ularga yaxshi munosabatda bo'lib, juda ko'p inomlar bergan. Bu ishlarni Ashtarxoniylar hukmdorlardan Imomqulixon va yana bir necha hukmdorlar keng miqyosda davom ettirishdi. Buxoro xonligida katta mavqega ega bo'lgan Jo'ybor shayxlari bilan olib borilgan yaqin munosabatlar xonlikning ichki ziddiyatlarsiz, markazlashgan yirik davlatga aylanishiga turtki bo'ldi va mamlakat hududida nisbatan tinchlik saqlanib qoldi. Quyidagi maqola "bu qanday shakllandi, bu kabi yaqin munosabatlar xonlikda qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi va oqibati qanday yakun topdi?" degan savollarga javob beradi.

KIRISH

Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davri (1601-1756) ga nazar soladigan bo'lsak, bu davrda ham xonlikda bir qancha o'zgarishlar yuz berganligini kuzatamiz. Ayniqsa, sulolaning eng yetuk namoyondalaridan biri bo'lgan Imomqulixon davri xonlikning har tomonlama taraqqiy topganligi bilan ajralib turadi. Mamlakatdagi o'zgarishlarda Jo'ybor shayxlarining o'rni va roli katta edi¹. Bu holatni hatto elchilar ham ta'kidlab o'tadi. Shulardan ingliz sayyohi Antoniy Jenkinson 1559-yilda Buxoroda bo'lib, bu yerdagi islom dini ulamolarining rahbarlari bo'lgan Jo'ybor shayxlari haqida shunday degan edi: "Buxoroda diniy rahbar bor. Unga qiroлга nisbatan ko'proq quloq soladilar, u o'z xohishi bilan qirolni o'rnidan olib, boshqasini qo'ya oladi". Bu fikrlari bilan Jenkinson Jo'ybor shayxlarini Medivistika tarixida mashhur Rim papalariga tenlashtirmoqchi bo'ladi ham. Lekin xonlarning mavqeyi har doim yuqori bo'gan bo'lsa-da, Abdullaxon II davridan boshlab to Buxoro amirligi

¹ **Jo'ybor shayxlari** (Jo'ybor xojalari, Jo'yboriylar) – naqshbandiylik tariqatining Buxorodagi vakillari. Ularning Jo'ybor shayxlari nomini olishi Xoja Muhammad Islomning bobosi Xoja Muhammad Yahyo Buxorodagi Jo'ybor degan yerga ko'chib kelishi bilan bog'liqdir. Jo'ybor shayxlari o'zlarini islom dinini targ'ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan Imom Ali Murtazo avlodi deb hisoblaganlar. Jo'ybor shayxlaridan Abu Bakr Sa'dga va uning avlodlariga Somoniylar davrida Buxoroning shayx ul-islomi degan mansab beriladi.

hukmronligi (1756-1920) tugashigacha ham Jo'ybor shayxlarining mavqeyi aholi va butun xonlik bo'yicha yuqoriligicha qoldi.

Amir Temur hukmronligi davri (1370-1405) da ham davlat boshqaruvida hukmdor din ulamolariga tayanib ish olib boradi va bu xalqning hukmdorga bo'ysunishini yengillashtiradi. Natijada davlat juda ulkan hududlarga ega bo'ldi. Buni anglab yetgan Shayboniy xon Abdullaxon II ham din ulamolari bilan yaqin munosabatlarni o'rnata oldi va bu mamlakatning markazlashuviga va kengayishiga turtki bo'ldi. Ashtarxoniylarning birinchi hukmdori Boqi Muhammadxon davri (1601-1605) dan boshlab bu an'ana davom ettirildi va asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi. Bu holat, eng muhimi, ichki siyosatning barqarorlashuviga xizmat qila oldi. Bu keng miqyosda tashqi aloqalar olib borishga yo'l ochib beradi. Bu siyosat Imomqulixon hukmronligi davri (1611-1642) da kuchayishi, Muhammad Yusuf Munshiy aytganidek, uning hukmronligi davrida na bir qo'zg'olon va na bir tartibsizliklar bo'lishini keng ma'noda cheklab turdi [1;41]. Bu yaqinlik siyosati Nadr Muhammadxon, Abdulazizxon, Subhonqulixon singari Ashtarxoniy hukmdorlar davrida ham keng miqyosda davom ettirildi va aynan shu hukmdorlar davrida ilm-fan va madaniy sohaning keng taraqqiy topishiga asos bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ashtarxoniyar sulolasi vakillari va Jo'ybor shayxlari o'rtasidagi yaqin munosabatlar, olib borilgan aloqalar haqida bir nechta manba va adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi. Abulabbos Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiyning "Matlab ut-tolibin" ("Toliblar matlabi") asari bunday munosabatlarga bag'ishlangan eng asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Asar taxminan 1673-yilda yozilgan bo'lib, asarda XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligining siyosiy, diniy va iqtisodiy hayotida yuqori mavqega ega bo'lgan mashhur Jo'ybor shayxlari xonadonining bir necha avlodi faoliyati va shu o'rinda Buxoro xonlari bilan munosabatlari keng yoritilgan. Agar manbani ko'radigan bo'lsak, muallifning o'zi ham ushbu xonadonga mansub bo'lganini ko'ramiz. Muhammad Tolib o'z asarida Jo'ybor shayxlarining hayot tarzi, mol-u mulklari, muridlari va xizmatkorlari, qurdirgan imoratlari hamda Buxoro xonlari va ba'zi xorijiy o'lkalar hukmdorlari bilan munosabatlari haqida mufassal ma'lumotlar beradi. Shuningdek, "Matlab ut-tolibin" da o'lkamizda Naqshbandiya ta'limotining XVI-XVII asrlardagi rivoji, Buxoro xonligida Islom dini va ulamolarning yuqori mavqega egaligi misollar bilan keng yoritilgan. Asarda o'sha davrlar boshqaruv tizimi va xo'jalik hayotiga oid qator atamalar faol qo'llanilgan. Shu sababli "Matlab ut-tolibin" Markaziy Osiyoning XVI-XVII asrlardagi tarixiga doir birlamchi va muhim manbalar sirasiga kiradi. Hozirda manba o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, bu tarjima 2016-yil G'ulom Karimiy va Erkin Mirkomilovlar tomonidan Toshkentda birinchi bor chop etilgan [2;175].

Jo'ybor shayxlari to'g'risida va ularning Ashtarxoniy hukmdorlar bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlar yana bir qancha manbalarda uchraydi. Bulardan eng asosiylari Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" (XVII asr), Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" (XVIII asr), Abdurahmon Davlat Tolening "Tarixi Abulfayzxon" (XVIII asr) asarlardir. Shulardan "Tarixi Muqimxoniy" asari eng muhim va eng asosiy ma'lumotlarni beradi. U asli Balxdan bo'lib, Buxoro xoni Subhonqulixon va Balx hokimi Muhammad Muqimxon saroylarida munshiy lavozimida xizmat qilgan. Muhammad Muqimxonning topshirig'i bilan Muhammad Yusuf elchi sifatida Hindistonda bo'lganligi ma'lum. Manbaga kelsak, kirish va 3 ta bobdan iborat. Asarning ikkinchi va uchinchi boblari original ya'ni o'zi ko'z bilan ko'rganlarini yozgan hisoblanadi. Ikkinchi bobda XVII asrda Balx viloyati va Buxoro xonligidagi ahvol, xonlarning ichki va tashqi siyosati va shu o'rinda Jo'ybor shayxlari bilan munosabatlari ham bayon etiladi. Uchinchi bobda esa 1702-1704-yillar voqealari yoritiladi [3;181-182].

Mir Muhammad Amin Buxoro xonligining 1702 – 1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiluvchi “Ubaydullanoma” deb nomlangan muhim asar yozib qoldirgan. Asarda dastlab kirish qismida Abdulazizxon va Subhonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan. Keyin boshlanuvchi 80 bobda muallif katta yer egaligi, zulm (masalan, aholidan yig‘iladigan soliq va jarimalar), Buxoro xonligining ma‘muriy tuzilishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga ham keng o‘rin bergan. Asarda geografik va etnografik va shu o‘rinda, Subhonqulixon va Ubaydullaxon II larning Jo‘ybor shayxlari bilan olib borgan munosabatlari haqida ma‘lumotlar ham bor [4;227]. Tarixchi bu haqida “Xon zarif ulamolar ulamosi, fazilat radifli hazrat eshon Oxund mullo Muhammad Sharifga ixlos qilgan” deb keltiradi [1;83].

Abdurahmon Davlatning “Tarixi Abulfayzxon” asari hajm jihatdan kichik (161 varaq) bo‘lib, yuqorida zikr etilgan “Ubaydullanoma” ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711 – 1723-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi. Asar kichik bo‘lsa-da, juda muhim. Abulfayzxonning hukmronlik yillari tarixi ancha keng yoritilgan va bu davrda xonlikda Jo‘ybor shayxlarining o‘rniga ham qisman to‘xtalib o‘tgan.

Jo‘ybor shayxlari haqida hozirda bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borib, bir qancha adabiyotlar yaratishgan. Shu o‘rinda, tarixchi olim Halim To‘rayevning tatqiqotlari muhim bo‘lib, u “Buxoro xonligining XVI–XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-madaniy hayotida Jo‘ybor xojalarining tutgan o‘rni” mavzusida dastlabki monografik tadqiqot olib borgan. Quyidagi maqola ham aynan XVII asrning birinchi yarmini qamrab olgan bo‘lib, ilmiy va tarixiy-mantiqiy metodlardan foydalanib mavzu yoritib beriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Buxoro xonligida Abdullaxon II davrida mavqeyi yuquri ko‘tarilgan Jo‘ybor xo‘jalari, XVII asrning birinchi yarmida ham xonlik miqyosida katta mavqega egaligicha qoldi. Bu davrda xonlikni boshqargan Ashtarxoniyalar sulolasi vakillari ham ichki, ham tashqi siyosatda ularning xizmatlaridan keng foydalandi va ular bilan yaqin munosabatda bo‘lib, buni inomlar va sovg‘a-salomlar berish orqali mustahkamlab borishdi. Bu esa xonlikning tinchligi va faol tashqi siyosatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi. Sulolaning dastlabki vakili Boqi Muhammadxon davri (1601-1605) danoq Jo‘yboriyalar bilan yaqin munosabat olib boriladi. Bu haqida Muhammad Tolib “Matlab ut-tolibin” da Jo‘yboriy Xo‘ja Tojiddin haqida so‘zlab, quyidagicha keltiradi: “Janob Boqimuhammadxon saltanat taxtiga o‘targach, hazrat eshonga oldingi tariqada rioya va izzat qilishda davom etdi. Xon Imomqulixon va Nadr Muhammadxonning xatna to‘yini shunday katta qilib boshladiki, hech bir zamonda unga o‘xshashi ko‘rilmagan edi. Buxoro, Samarqand, Balx, Toshkent, Andijon, Turkiston va boshqa viloyatlarning ulug‘ va sharif kishilari, ulamo, fozillar va amirlar kelishgan edi” deb to‘y marosimini tasvirlash orqali xonning Jo‘yboriyalarga munosabati ko‘rsatib berilgan [5;206]. Quyidagi fikrlar orqali ularning mamlakatdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan: “Janob Boqimuhammadxon bir ohuni otib yiqitib, so‘ngra hazrat padari buzurgvorimizga navbat berdi. Hazrat eshon va hazrat Abdurahimxo‘ja ham bittadan ohu otishdi. Shundan so‘ng xon amirlar va jami sipohga yig‘ilganlarga hayvonlarni otishni buyurdi. Ajoyib bir ov bo‘ldi” [5;207]. Bundan ko‘rinib turibdiki, davlatda xon eng yuqori o‘rinda tursa, Jo‘ybor shayxlari undan keyingi o‘rinni egallan. Vali Muhammadxon ham Jo‘yboriyalarga ehtiromni davom ettirdi. Vali Muhammadxon yirik jo‘yboriyalar vakili Xoja Tojiddinning qarzi borligi haqida eshitib, unga 40 ming xoniy naqd pul va bir nechta qishloqlarni mulk qilib bergan. Uning ukasi Abdurahimxo‘jaga esa 20 ming xoniy in‘om etgan. Yana qo‘shimchasiga, jo‘yboriyalardan xonlar elchi sifatida ko‘p marotaba foydalanishgan, bundan maqsad o‘sha davr qoidasi bo‘yicha elchi nufuzli, bilimli shaxs bo‘lishi kerak edi va ular munosib ko‘rilgan. Vali Muhammadxon va jiyanlari Imomquli va Nadr Muhammadlar o‘rtasida kelishmovchilik bo‘lgan vaqtda, mavjud

vaziyatni yumshatish uchun xon tomonidan Xoja Tojiddin elchi tariqasida yuborilgan. U esa o'ziga yuklatilgan vazifani a'lo darajada bajargan. Ba'zan Jo'ybor shayxlari ham xon uchun ziyofatlar tashkil etishgan. Masalan, Xoja Tojiddin bir necha marta Vali Muhammadxon uchun bazmlar uyushtirgan va xonni qimmatbaho sarpolar va egar jabduqli ot bilan siylagan [1;38].

Imomqulixonning Jo'yboriyalar bilan aloqalari alohida ahamiyatga ega. Xon ular bilan yaqin munosabatda bo'lishi mamlakat tinchligida asosiy o'rin egallaydi. O'z singlisi Poyanda sulton xonimni Jo'ybor shayxi Xo'ja Tojiddinga nikohlab berib, xon saltanati mavqeini mustahkamlashga harakat qildi [6;167]. Yana, jo'yboriy Oxund Mulla Xadoniy vafot etganda xon shaxsan janozaga kelib, jasadni o'z yelkasiga ko'tardi [5;190]. Tarixchi olim Halim To'rayev xon ayrim davlat lavozimlariga odam tayinlashda Xo'ja Tojiddin maslahatlarini olib turganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Imomqulixon shaharda bo'lmagan paytda biror bir masala paydo bo'lib qolganda, bu masalani hal qilish uchun Xoja Tojiddinga murojaat qilingan. Bir da'fa shunday masala paydo bo'lganda qozi, rais va boshqa amaldorlar yig'ilishib, Xoja Tojiddin oldiga keladilar va unga murojaat qiladilar, maslahat va qarorini oladilar [7;142]. Muhammad Tolibning akasi Muhammad Yusuf bilan ham munosabatlar juda yaxshi edi. Lekin shayxzodalarning boshqa bir vakili Abdurahim Xoja (1575-1628) bilan Imomqulixon o'rtasida o'zaro kelishuv amalga oshmadi. Ular o'rtasida yuz bergan ixtilof oqibatida Abdurahim Xoja hajga ketishga majbur bo'ladi, mol-mulki esa Imomqulixon buyrug'i bilan musodara qilinadi. Uning tashabbusi bilan Sumitanda boshlangan madrasa qurilishi oxiriga yetkazilmay qoldi va g'ishtlarini xalq bo'lib oldi [1;50]. Ba'zan bu holat sababli Imomqulixonning ko'zi umrining oxirida ko'r bo'lib qolganligini keltirishadi. Lekin qanday bo'lmasin, xon dindor, onasi tomonidan sayyidlarga bog'langan edi. Bu esa 1644-yilda haj ziyorati paytida Arofat tog'ida vafot etganda, janozasiga 600 ming kishi to'lanishiga va qabri Madinadagi Baqiy qabristoniga² qo'yilishiga sabab bo'ladi [8;29].

Imomqulixonning ukasi Nadr Muhammadxon va jiyani Abdulazizxonlar davrida ham jo'yboriyalar bilan yaqin munosabat davom ettirildi. Masalan, Nadr Muhammad xonlik taxtiga ko'tarilgach, xojazoda tarafidan mehmonga taklif qilinib, oyog'i tagida poyandoz tashlanadi va o'n ming xoniy mablag' tuhfa etiladi. U Xoja Tojiddinning ukasi Abdurahimxoja Jo'yboriyning qiziga uylangan va xonlik maqomini qabul qilgach, darhol Jo'yborga, Xoja Tojiddin huzuriga tashrif buyurgan va uning ko'shixonasida mehmon bo'lgan [1;62]. U ona tomondan Buxoroning nufuzli xonadoni Jo'ybor xojalariga mansub Adurahim Xoja Jo'yboriyning (1575-1627) nevarasi edi. Abdurahim Xojaning qizlaridan biri Poshsho oyim Nadr Muhammadxonning nikohida bo'lgan. Aynan, ushbu nikohdan Abdulazizxon tug'ilgan bo'lib, keyinchalik xonlik taxtini egallashiga bu xonadon vakillarining yordami beqiyos bo'lgan [9;594]. Bu davrda ham elchilik ishlari Jo'yboriyalar bilan amalga oshirilgan. Abdulazizxon Avrangzebning taxtga o'tirganligini qutlovchi maktub yozib, maktubni elchi Jo'ybor xo'jasi Ahmad al-Husayniy Naqshbandiy olib boradi. Maktubda Avrangzeb shaxsiyatini uzoqdan-uzoq ta'riflash bilan boshlanib, so'ng hamjihatlik odati do'stlik uchun bebaho gavhardir, deb uqtirilgach, birdamlikni mustahkamlash lozimligi izhor etadi. 1665-yil iyul oyida Avrangzeb Buxoroga Mustafaxon Xofi boshchiligidagi elchilarni yuboradi. Elchilar Abdulazizxon nomiga yozilgan maktub va umumiy qiymati 150 ming rupiyalik sovg'alar keltiradilar [10;15]. Abdulazizxonning piri ham Jo'yboriy Abdulg'afforxo'ja edi [11;266]. 1681-yil Abdulazizxon taxtdan voz kechgach, ukasi Subhonqulixon (1681-1702) va birin-ketin Ubaydullaxon II (1702-1711) hamda Abulfayzxonlar davlatni boshqarishdi. Balx hukmdori bo'lgan davrda xojazodalar bilan aloqalarni yaxshilash maqsadida Subhonquli Xoja Tojiddin ammasining qizini o'z nikohiga oladi va 400 tanob yerni Hindistondan Balxga yashash uchun kelgan Xoja

² Ba'qi' Madinadagi mashhur qabriston bo'lib unga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning juda ko'p sahobalari dafn qilingan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning oila a'zolari va yaqin qarindoshlaridan Ba'qi' qabristoniga dafn qilinganlar.

Tojiddinning ikkinchi o'g'li Muhammad Tayyib Xojaga in'om qiladi. Subhonqulixon hukmronligi davrida ham Jo'ybor xojalarining xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutganligini saroy tarixchisi Muhammad Amin Buxoriy ham tasdiqlaydi. Lekin o'g'li Ubaydullaxon II davrida Jo'yboriyalar bilan munosabatlar yaxshi kechmadi. Uning 1806-yilgi pul islohoti savdoning pasayishiga sabab bo'lgan bo'sa, soliq sohasida olib borgan islohotlari natijasida Jo'ybor shayxlaridan ham soliq talab eta boshladi. Bu esa ular bilan munosabatlarning buzulishiga olib keldi. Shunday bo'lsa-da, ular xalq orasida o'z mavqeyini saqlab qolishdi va bu davrida Jo'yboriyalardan Muhammad Boqi, Hoshim Xojalar shayxulislom lavozimini egallaganlar [7;11]. Ammo Abulfayzxon davrida aloqalar deyarli yuqolgan edi. Lekin u ham elchilik munosabatlarda bu shayxlarning yordamidan foydalanganidan manbalar guvohlik beradi. Eron bilan aloqalarda Abdulfayzxon Xo'jayi Jo'yboriyani Peshovarda turgan Nodirshoh huzuriga qimmatbaho sovg'alar bilan yuborganligi haqida ma'lumotlar bor [12;168].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ashtarxoniylar sulolasi vakillari ham mamlakat hayotida katta mavqega ega bo'lgan Jo'ybor shayxlari bilan doimo yaxshi munosabatda bo'lishga harakat qilishdi. Bunda ular mamlakatning tinchligi va farovonligini birinchi o'rinda ko'rishgan bo'lsa, yana ular o'z hokimiyatlarining mustahkam bo'lishida ham ularning yirik mavqega ega ekanliklaridan foydalanishdi. Bu esa xonlikda diniy muhitning yuqori bo'lishiga, ilm-fan sohasining rivoj topishiga va tashqi aloqalarning o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsata oldi. So'nggi hukmdorlarning Jo'yboriyalar bilan aloqalarni kamaytirishi sulola tanazzuliga sabab bo'lgan omillardan biri bo'lib qoldi desak ham mubolag'a bo'lmaymiz. Bu mavzu kelajakda yangi manbalarni o'rganish davomida yanada boyib borishiga ishonamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zamonov A. Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari [Matn]: monografiya / Zamonov A. – Toshkent: “BAYOZ”, 2021. – 137 b.
2. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi [Matn]: metodik qo'llanma / Zamonov A. Toshkent: “BAYOZ”, 2021. – 266 b.
3. Arslonzoda R. A. Manbashunoslik: Bakalavriyatning 5120300 – “Tarix (Mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir M. M. Is'hoqov. – Farg'ona: Classic, 2022. – 348 b.
4. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар): Тарих муаллимлари, талабалар ва юқори синф ўқувчилари учун қўлланма. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2001. – 352 б.
5. Абулаббос Мухаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. Таржимонлар: Каримий, Э.Миркомиллов; Масъул мухаррир: т.ф.д Х. Тураев; Тошкент давлат Шаркшунослик институтига хузуридаги Абу Рай хон Беруний номли Шарк хулёмалари маркази. – Тошкент: “Movaqounnahr” 2016. – 386 б.
6. То'rayev Н. Бухоро тарихи [Matn] : o'quv qo'llanma / То'rayev Н. – Бухоро: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdoni nashriyoti, 2020. – 320 b.
7. Турайев Х. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сийосий ва маънавий-маданий ҳайотида жуйбор хожаларининг тутган урни. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 309 б.
8. Сангирова Д. Х. Хаж зийорати ва хукмдор хожилар // O'tmishga nazar. 2019. №18. – В. 24 – 37.
9. Zamonov A. O'zbekiston tarixi. III qism: Temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davri. Darslik / A. Zamonov. – Toshkent: «BAYOZ», 2023. – 672 b.

10. Tilabjonova. S.Sh. Buxoro xonligi Ashtarxoniylar sulolasi davrida: elchilik munosabatlari // Science and Research: Journal of Modern Science, Education and Technology, 2024. – B. 12-17.
11. Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) // Масъул муҳаррир: Б. Аҳмедов. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – 187 б.
12. Мирзо Олим Маҳдум Хожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2009. – 249 б.

